

ARAB TILIDA JINS KATEGORIYASI

Nuraliyeva Bahoroy Shuhrat qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'naliishi 1-bosqich talabasi

nuraliyevabahoroy@gmail.com

Umurzakova Oygul Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada arab tilidagi jins kategoriyasining grammatik va semantik xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Erkaklik (الذكر) va ayollik (المؤنث) jinslarining morfologik shakllanishi, ularning lug'aviy va grammatik jihatlari, jumladagi vazifalari va boshqa so'z turkumlari bilan bog'lanishi o'r ganiladi. Tadqiqot arab tili grammatikasini o'r ganayotgan talabalar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar va iboralar: arab tili, jins kategoriyasi, muzakkar jins (الذكر), muannas jins (المؤنث).

***Аннотация.** В данной статье подробно анализируются грамматические и семантические особенности категории рода в арабском языке. Изучаются морфологическое образование мужского (الذكر) и женского (المؤنث) рода, их лексические и грамматические характеристики, функции в предложении и связь с другими частями речи. Исследование служит теоретической и практической основой для студентов, изучающих арабскую грамматику.*

Ключевые слова и фразы: арабский язык, категория рода, мужской род (الذكر), женский род (المؤنث).

***Annotation.** This article provides a detailed analysis of the grammatical and semantic features of the gender category in the Arabic language. It examines the morphological formation of the masculine (الذكر) and feminine (المؤنث) genders, their lexical and grammatical characteristics, their functions in sentences, and their connection with other parts of speech. The research serves as a theoretical and practical foundation for students studying Arabic grammar.*

Keywords and phrases: Arabic language, gender category, masculine gender (الذكر), feminine gender (المؤنث).

Arab tili grammatikasining eng asosiy unsurlaridan biri bu jins kategoriyasidir. Bu kategoriya so'zlarning erkaklik yoki ayollik jinsiga bo'linishini va bu bo'linishning grammatik tizimga qanday ta'sir ko'rsatishini belgilaydi. Jins kategoriyasi arab tilida barcha otlar, sifatlar, fe'lllar va boshqa so'z turkumlariga tegishli bo'lib, ularning shakllanishida va qo'llanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola jins kategoriyasini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tahlil qiladi. Asosiy e'tibor jinsning shakllanish qoidalari, uning boshqa grammatik unsurlar bilan uyg'unligi va arab tili sintaksisidagi ahamiyatiga qaratiladi.

Arab tilida jins ikki asosiy turga bo'linadi:

1. Muzakkar jins (المذكر). Muzakkar (erkak) jinsi asosiy va tabiiy holat hisoblanadi. Bu so'zlarda maxsus grammatik ko'rsatkich bo'lmaydi.
2. Muannas jins (المؤنث). Muannas (ayol) jins odatda maxsus grammatik ko'rsatkichlar orqali shakllanadi.

Arab tilidagi jins kategoriyasi nafaqat grammatik moslik uchun, balki tilning mantiqiy tuzilishi uchun ham asosdir. Arab tilida muzakkar (erkak) va muannas (ayol) jinsi mavjud. Muannas jinsnini bildiruvchi bir nechta grammatik belgilar mavjud.

- So'z oxiridagi -atun, qo'shimchasidir. Bu qo'shimcha yozuvda “ة” (ta marbuta) harfi bilan ifodalanadi. Masalan:
مكتبة – *xona*; مدينة – *shahar*; غرفة – *kutubxona*.
- Oxiri alif mamdua “اء” bilan tugagan so'zlar. Masalan:
صراء – *sahro*.
- Oxiri alif maqsura “ى” bilan tugagan so'zlar. Masalan:
ذكرى – *xotira*; حبلى – *og'iroyoq*.

Oxiri boshqa tovushlar bilan tugagan so'zlar muzakkar jins hisoblanadi. Masalan:

كتاب – *kitob*; باب – *eshik*; بيت – *uy*.

Arab tilida yana shunday so'zlar borki, grammatik belgi jihatidan muannas jinsiga ishora qilsa-da, lekin mazmun jihatidan erkak kishini anglatsa, bunday so'zlar muzakkar jinsiga tegishli so'zlar hisoblanadi. Masalan:

حمسة – *Hamza*

Bu so'zning oxiri “ta marbuta” ya'ni “ة” harfi bilan tugagan. Bizga ma'lumki, bu qo'shimcha bilan tugagan so'zlar muannasga tegishli, ammo Hamza erkak kishiga qo'yilgan ism hisoblanganligi sababli muzakkar hisoblanadi. Misollar:

طلحة – *Tolha*, قتادة – *Qatoda*, خليفة – *xalifa*.

Muannaslik grammatik belgisiga ega bo'limgan quyidagi so'zlar muannas jinsiga mansub bo'ladi:

- ❖ Ayol kishini yoki ayollarning ismini bildiruvchi so'zlar. Misol uchun:
أم – *on'a*; زينب – *qiz*; سعاد – *Suod*.
- ❖ Tananing juft a'zolari. Misol uchun:
عين – *ko'z*, أذن – *qo'l*, رجل – *quloq*, عين – *oyoq*.
- ❖ Aniqlik artiklini (ال) olmaydigan va tanvin qo'shimchasi bilan tugamaydigan geografik nomlar. Misol uchun:
بغداد – *Bag'dod*, مصر – *Misr*, ليبيا – *Liviya*, سوريا – *Suriya*.
- ❖ Ayrim so'zlar istisno holatida muannas jinsiga tegishli bo'ladi. Misol uchun:
أرض – *yer*, أرض – *quduq*, نار – *urush*, حرب – *shamol turi*, شمس – *olv*, سموم – *quyosh*.

- ❖ Bulardan tashqari “ta marbuta” bilan tugamagan ayrim so‘zlar ikkala jinsda ham ishlatalishi mumkin. Masalan:

كبد – قوس – *jigar*, ملح – فرس – *ot*, طفلة – طفل – *go'dak bola*, تلميذة – تلميذ – *o'quvchi qiz*, طالبة – طالب – *talaba qiz*, حالة – خال – *xola*, مهندسة – مهندس – *ayol muhandis*, طبيبة – طبيب – *erkak shifokor*.

Arab tilida odamlarning kasb-hunari, mansabi, mavqeyi, qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi muzakkarr jinsli otlarning oxiriga ة – ta marbuta harfini qo’shish orqali muannas variantini hosil qilish mumkin. Masalan:

طفلة – طفلة – *go'dak bola*, تلميذة – تلميذ – *o'quvchi qiz*, طالبة – طالب – *talaba qiz*, حالة – خال – *xola*, مهندسة – مهندس – *ayol muhandis*, طبيبة – طبيب – *erkak shifokor*.

Arab tilida muzakkarr va muannas jinsi boshqa so‘z turkumlariga (sifat, olmosh, fe’lga) ham ta’sir qiladi. Otning sifatini bildirib kelgan so‘z jinsda otga moslashadi ya’ni ot qaysi jinsda bo‘lsa, sifat ham shu jinsda bo‘ladi. Masalan:

كتاب جميل – *chiroyli kitob*.

Kitob ham, uning sifati bo‘lmish chiroyli so‘zi ham muzakkarr jinsida.

غرفة جميلة – *chiroyli xona*.

Xona ham, uning sifati bo‘lmish chiroyli so‘zi ham muannas jinsiga tegishli.

Shuningdek, fe’llar ham jinsda moslashadi. Masalan:

هو يذهب – *u boradi (muzakkarda)*
هي تذهب – *u boradi (muannasda)*
ذهب – *u bordi (muzakkarda)*
ذهبت – *u bordi (muannasda)*.

Olmoshlar va ismu ishoralar (o’zbek tilidagi ko‘rsatish olmoshlari) ham jinsda otga moslashadi. Masalan:

هذا باب – *bu eshik*. Bu yerda – هذا باب – *muzakkarr jinsdagi olmosh*.

هذه غرفة – *bu xona*. Bu yerda هذه غرفة – *muannas jinsdagi olmosh*.

هو رجل – *u erkak kishi*.

هي امرأة – *u ayol kishi*.

Arab tilidagi jins kategoriyasi tilning grammatik va semantik tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Erkak va ayol jinslarning shakllanishi, ularning grammatik unsurlar bilan bog'lanishi va stilistik ahamiyati arab tilining boy imkoniyatlarini aks ettiradi.

Jins kategoriyasi turli tillarda turlicha talqin qilinadi. Jins kategoriyasi tilga xos xususiyat bo'lib, barcha tillarda uchramaydi. Arab tili dunyodagi eng murakkab tillardan biri bo'lib, unda jins muhim rol o'ynaydi. O'zbek tili bilan solishtiradigan bo'lsak, arab tilida o'zbek tilida mavjud bo'limgan erkak va ayol jinsi mavjud. Arab tilida otlar ikki jinsga – muzakkar (ذكر) va muannas (مؤنث) jinsiga ajratilishi va ularning farqlanishi ko'rib, o'rganib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019, (54-57 betlar).
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2009, (47-49 betlar).
3. Sanatulloh Bekpo'lat. Mabdaus-sarf, mabdaun-nahv. – Toshkent, 2022, (105-107 betlar).
4. www.arabic.uz